

ZAMONAVIY O'ZBEK JAMIYATIDA YOSHLAR MUAMMOLARI

Ilhom KARIMOV,
ISFT instituti o'qituvchisi

Abstract

this article analyzes the implementation of legislation in the field of youth policy in the modern Uzbek society, as well as the problems among the youth, the largest socio-demographic layer of the country. Appropriate proposals were made for solving problems among young people.

Key words

youth, youth policy, youth problems, youth state policy, law

Аннотация

в данной статье анализируется реализация законодательства в сфере молодёжной политики в современном узбекском обществе, а также проблемы среди молодёжи, крупнейшего социально-демографического слоя страны. Были внесены соответствующие предложения по решению проблем среди молодежи.

Ключевые слова

молодежь, молодежная политика, молодежные проблемы, молодежная государственная политика, закон.

Annotatsiya

ushbu maqolada zamonaviy O'zbekiston jamiyatida yoshlarga oid davlat siyosati sohasida-gi qonunchilik ijrosini ta'minlash, shuningdek, mamlakatning eng katta ijtimoiy-demografik qatlami bo'lgan yoshlar orasidagi muammolar tahlil qilingan. Yoshlar orasidagi muammo-larni bartaraf etish yuzasidan tegishli takliflar berilgan.

Kalit so'zlar

yoshlar, yoshlar siyosati, yoshlar muammolari, yoshlarga oid davlat siyosati, qonun

Kirish

O'zbekiston Respublikasida 30 yoshgacha bo'lgan yoshlар soni 18 milliondan ziyod. Bu aholining qariyb 55 foizini tashkil etadi [3]. Mutaxassislarning ta'kidlashicha, yaqin yigirma yil ichida bugungi yoshlар qatlamiga mansub O'zbekiston fuqarolari mamlakat hayotidagi eng katta va muhim manbaga aylanadi.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish mamlakatning ijtimoiy funksiyalari dan biri bo'lib, ushbu sohadagi faoliyatda vujudga keladigan muammolar bevosita ijtimoiy muammolar sirasiga kiradi. Ko'pgina xalqaro hujjatlar, ma'ruzalar va ilmiy tadqiqotlarda dunyoning deyarli barcha mamlakatlarida yoshlар jamiyatning eng zaif qatlami sifatida e'tirof etilgan bo'lib, boshqa yosh toifalariga nisbatan ko'proq turli muammolarga duch kelishadi.

Yoshlar muammolari har qanday jamiyatda mavjud bo'lib, ularning ikkita juda muhim sababi bor. Bir tomondan, ular jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlarning in'ikosidir. Ikkinchchi tomondan, yoshlar muammolari ko'p jihatdan yoshlар jamiyatning ijtimoiy-demografik guruhi sifatidagi xususiyatlariiga bog'liq. Yoshlar muammolari bir necha jihatlarni o'z ichiga oladi. Bular yoshlarni ijtimoiylashtirish, yoshlarni ijtimoiy va o'zaro munosabatlar tizimiga qo'shish, oilaviy muammolari, ta'lim, bo'sh vaqt, sog'liqni saqlash, yoshlarning ehtiyojlariiga mos keladigan kasbiy va malaka tuzilmasini shakllantirish [4. 102] va boshqalar.

Asosiy qism. XX asr 60-yillarining boshida ko'plab mamlakatlar yosh avlodga nisbatan maqsadli ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy siyosat olib borishni boshladilar. Aynan shu davrda G'arb davlatlari jamiyatida yoshlarning g'ayritabiyy xulq-atvori namoyon bo'lishining kuchayishi ushbu jamiyatlarning jiddiy xavotiriga sabab bo'ldi. Olimlar va siyosatchilarning fikriga ko'ra bu jarayonlarda zamonaviy jamiyatning modernizatsiyasi, ilmiy-texnika taraqqiyoti ta'siri ostida uning tuzilishining murakkablashishi, oila, mакtab, din kabi an'anaviy ijtimoiy institutlarning parchalanishi yoshlarning ijtimoiylashuvi jarayonida muhim rol o'yndi.

Yoshlar ijtimoiy-demografik guruhi sifatida 14 yoshdan 30 yoshgacha bo'lgan shaxslarni o'z ichiga oladi. Aynan shu davrda inson hayotidagi asosiy ijtimoiy-demografik hodisalar: o'rta va oliy ma'lumot olish, kasb tanlash va egallash, mehnat faoliyatini boshlash, turmush qurish, farzand ko'rish kabilalar sodir bo'ladi. Yoshlar ijtimoiy guruhi sifatida hayotning boshlanishi bosqichida, birinchi navbatda, ishga joylashishda jiddiy qiyinchiliklarni boshdan kechirishi bilan ajralib turadi. Shuningdek, yoshlar uy-joy va moddiy muammolarga ko'proq duch keladilar.

Oldingi davrlarda an'anaviy ravishda yoshlar muammolarini maqsadli hal etishdan qochgan dunyo davlatlari keyingi siyosiy jarayonlar hamda texnologik taraqqiyot tufayli yoshlar hayotiga faol aralasha boshladilar va yoshlarga oid siyosat davlat yagona siyosatining muhim qismiga aylandi. Bu jarayon deyarli barcha jahon mamlakatlariga xos. Shu

bilan birga, yoshlarni siyosati ko'plab xalqaro tashkilotlar hamda butun jahon hamjamiyatining muhokama mavzusiga aylandi. Yosh avlodga g'amxo'rlik qilish Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Xalqaro mehnat tashkiloti, Jahon sog'lioni saqlash tashkiloti va boshqa ko'plab xalqaro darajadagi tuzilmalarning eng muhim vazifalaridan biriga aylandi. 1965-yilda BMT Bosh Assambleyasi tomonidan «Yoshlarni o'rtaida tinchlik, xalqlar o'rtaсидаги о'заро hurmat va hamjihatlik g'oyalarini targ'ib qilish to'g'risidagi deklaratсия» qabul qilinganidan so'ng, yoshlarning ijtimoiy muammolari uning faoliyatida alohida yo'naliш bo'ldi.

1985-yildan boshlab YUNESKO shafeligida «Yoshlarni Ta'lim. Mehnat» mavzusi doira-sida yoshlarning masalalari bo'yicha butunjahon yoshlarning kongressi faoliyat yuritib kelmoqda.

Aksariyat zamonaviy davlatlar yoshlarni ijtimoiylashtirish va ularning jamiyatga integratsiyalashuvi masalasiga jiddiy e'tibor berishadi. Mamlakatning kelajagi, uning iqtisodiy farovonligi, siyosiy nufuzi davlat tomonidan yoshlarga qanday g'amxo'rlik ko'rsatilishiga, ularning ma'naviy-axloqiy va kasbiy tarbiyasiga bog'liq bo'ladi. Tadqiqotchilar yoshlarning siyosatini davlat, siyosiy partiyalar, jamoat tashkilotlari va birlashmalari, jamoatchilik bilan aloqalarning boshqa subyektlari faoliyatining alohida sohasi, yoshlarning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy rivojlanishiga va u orqali jamiyatning kelajakdagagi holatiga ta'siri deb ataydilar [5, 5].

Bugungi kunda O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish va institutsionalizatsiya qilishning eng yaxshi usullarini topish muammosi mavjud.

XX asrning 90-yillaridan boshlab O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatining huquqiy va institutsional asoslarini shakllantirish va rivojlantirishning murakkab jarayoni kechmoqda. Ushbu sohada mamlakatda yoshlarga oid siyosatni amalga oshirishni tartibga soluvchi asosiy qonunlar va qonunosti hujjatlari qabul qilindi. Ularda yoshlarning qonuniy huquq va manfaatlariga riosa etilishi uchun davlat mas'uliyati, shuningdek, yoshlarning ma'naviy, ijtimoiy, jismoniy va madaniy kamolotini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning ustuvorligi tamoyillari asos qilib olingan. Mamlakatda yoshlarga oid siyosatni amalga oshiruvchi davlat hokimiyati tuzilmalari tarmog'i barpo etildi.

O'zbekistonda yoshlarning siyosatini shakllantirish jarayoni ko'plab tajribalar mahsulidir. Biroq, mamlakatda yoshlarning siyosatining mavjud modelining muhim kamchiliklaridan biri ilmiy asoslarga tayanmaganidir. Buning asosiy sababi sifatida ushbu sohada olimlar tomonidan yetarlicha tadqiqot ishlari olib borilmaganligini ta'kidlash mumkin.

Hozirgi kunda Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlarni tayyorlash instituti faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu davlat muassasasi 2020-yil 30-iyundagi PQ-4768-sonli Prezident qarori asosida faoliyat yuritib, sohaga oid ilmiy-tadqiqot va tahliliy izlanishlar olib bormoqda hamda yaqin yillarda tajribalar mahsulini amaliy faoliyatda ham ko'rish mumkin bo'ladi.

Yoshlarga oid davlat siyosati ijrosini ta'minlashda kadrlar masalasi ham juda muhim va dolzarbdir. Oliy ta'lim muassasalarida yoshlarning ishlash bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan yo'naliшlar, malaka oshirish hamda qayta tayyorlash kurslari mavjud bo'lishi-

ga qaramay, yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga jalb etilgan xodimlarning aksariyati maxsus ma'lumotga ega emas. Shu bilan birga ushbu sohada faoliyat yuritayotgan mutaxassislarning aksariyati yoshlar bilan ishslash uchun zarur bo'lgan malakalarga ham ega emas. O'zbekiston Milliy universitetida ijtimoiy ish (yoshlar bilan ishslashni tashkil etish) mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilgan. Biroq, tayyorlanadigan mutaxassislar soni ushbu sohadagi mavjud ehtiyojlarga mos emas hamda faoliyat yo'naliishi bo'yicha ishga joylashish masalasida ham tizimli aniq mexanizmlar ishlab chiqilmagan.

O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini baholash milliy indeksi ishlab chiqilgan bo'lib, Yoshlar muammolarini o'rganish va istiqbolli kadrlar tayyorlash instituti tomonidan monitoring ishlari amalga oshiriladi. Shunga qaramasdan yoshlarga oid davlat siyosati sohasida amalga oshirilgan ishlarning sifatini baholash mezonlari ishlab chiqilmagan. Bu o'z navbatida bajarilgan ishlarning natijalarini xolisona baholashda bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shuningdek, yoshlarning jamiyatga integratsiyalashuvi jarayonida duch keladigan bir qator amaliy muammolar ham mavjud. Hozirgi kunda O'zbekiston jamiyati tarkibida yoshlarning funksional orni va uning faoliyati to'liq va xolisona aniqlanmaganligi sababli, yoshlar o'z qobiliyatlari va istedodlarini ro'yobga chiqarish va amaliyotda qo'llash uchun mustaqil ravishda izlanadilar. Bu esa ko'pincha ular uchun katta qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Buning oqibatida ishsizlikning yuqori darajasi, ma'naviy-axloqiy inqiroz va yoshlar o'rtasida jinoyatchilikning ortishiga olib kelishi mumkin. Ko'pchilik holatlarda yoshlar o'zlarini qiziqtirgan yoshlarga oid faoliyat va dasturlar haqida ma'lumotlarga ega emas.

Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishdagi yana bir muammolardan biri bu faoliyat yo'naliشining cheklanganligi hamda yoshlarning barcha toifalariga emas, balki ayrim yosh guruhlariga qaratilgan faoliyat olib borilishidir. Odatda, muayyan ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga duch kelgan (xulqida og'ishi bo'lgan yoki huquqbazarlikka moyil yoshlar, mehribonlik uylari tarbiyalanuvchilar, ishsiz yoshlar, yosh oilalar, uyushmagan yoshlar va h.k.) yoshlarga yordam berish maqsadida muayyan dasturlar yoki loyihalar amalga oshiriladi.

Aksariyat hollarda yoshlar ularga ta'sir qiladigan siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida faol ishtirok etishmaydi. Bu yoshlarning jamiyatda siyosiy jarayonlardan uzoqda ekanligini hamda huquqiy madaniyat yuqori darajada shakllanmaganligini anglatadi. Shu bilan birga tahlillarga ko'ra, siyosiy tuzilmalarda 30 yoshgacha bo'lgan kishilarning ulushi nisbatan kamchilikni tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasida faoliyat yuritayotgan deputatlarning 6 % i 30 yoshgacha bo'lgan yoshlardan iborat [2.253].

O'zbekistonda yoshlar siyosati bo'yicha bir qator ijobjiy ishlar amalga oshirilmoqda. Xususan, xorij tajribasidan samarali foydalanish, o'zaro tizimli hamkorlikni rivojlantirish

maqsadida 13 ta xorijiy yoshlar tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari olib borilmoqda. O'zbekiston 2018-yilda Shanxay Hamkorlik Tashkiloti Yoshlar kengashiga, 2020-yilda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Yoshlar masalalari bo'yicha kengashiga teng huquqli a'zo sifatida qabul qilingan.

Erishilgan ijobiy natijalar bilan birga yoshlarga oid davlat siyosatida bir qator muammolar ham mavjud. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 18-yanvardagi 21-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi»da sohaga doir bir qator muammolar sanab o'tilgan. Bular, ta'limdagi muammolar, yoshlar bandligi va munosib ish sharoitlarini yaratish muammosi, yoshlar ma'naviyati va tarbiyasiga oid muammolar, yoshlarning tibbiy mada-niyati, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarni jamiyatga ijtimoiy moslashtirish muammolari, yoshlar siyosiy faolligi hamda ishtirokining pastligi muammosi, yoshlarga oid infratuzil-malarning rivojlanmaganligi muammosi va boshqalar.

Mamlakat ta'lim tizimida tahsil olish asosan ma'lumotlarni yod olishga qaratilgan. Bu bolalarda ijodiy fikrlash hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari shakllanmasligiga olib keladi. Shunga ko'ra umumta'lim tizimi katta islohotlar o'tkazilishiga muhtoj va buning asosiy yechimi xorij tajribasi va milliy xususiyatlarni inobatga olgan holda izchil pedagogik texnologiyalarni amaliyotga tatbiq etishdan iborat. Ushbu maqsadlarga erishish uchun Skandinaviya mamlakatlari ta'lim tizimi tajribasi o'rganilib, maktab ta'limiga bos-qichma-bosqich joriy etish ishlari boshlangan. Ushbu sa'y-harakatlar yaqin yillar ichida o'z samarasini beradi. Shu bilan birga maktabgacha hamda oliy ta'lim tizimida ham bir qator muammolar saqlanib turibdi. Oliy ta'limga qamrov 2022-2023 o'quv yilida 35 % ga yetka-zilgan bo'lsa-da, mavjud ehtiyoj va kadrlar masalasida to'liq yechim bo'la olmayapti. Endigi asosiy masala qamrov darajasini oshirish bilan birgalikda oliy ta'limda sifat bosqichiga erishishdir.

Yoshlar siyosatidagi dolzarb masalalardan biri yoshlarning bandligini ta'minlash muammosi bo'lib, ishga joylashishda eng ko'p tajribasiz va yetarli malakaga ega bo'lмаган yoshlar ushbu muammolarga duch keladilar. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda 2020-yilning so'nggi choragida ishsiz yoshlar 480 ming 261 nafarni tashkil etgan [1].

Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, ona Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar samaradorligining pastligi sababli ularning turli yet g'oyalarga ergashishi, huquqbazarlik va jinoyatchilik, erta tug'ruq hamda to'y-hasham-larning ortiqcha sarf-xarajatlar bilan o'tkazilishi kabi salbiy holatlar kuzatilmoqda. 39088 nafar yoshlar notinch oilalarda istiqomat qilmoqda, 368 nafar yoshlar turli zararli noformal guruuhlar, oqimlar ta'siriga tushib qolgan. Xususan, 2020-yilning yanvar-noyabr oylarida qayd etilgan 39244 ta jinoyatning 11469 tasi yoki 34,8 foizi yoshlar tomonidan sodir etilgan.

Yoshlarni oilaga sadoqat ruhida tarbiyalash, oilaviy hayotga tayyorlash ishlari tizimli tashkil etilmagan. Xususan, yoshlar o'rtasida erta nikoh holatlari, qonuniy rasmiylashtirilmagan nikoh va ajrim holatlari kuzatilmoqda, jumladan 2020-yilning 11 oyida qayd etilgan 25 mingta oila ajrimlarining aksariyati yoshlar hissasiga to'g'ri keladi [1].

Yoshlar orasida tibbiy madaniyatning yaxshi rivojlanmaganligi oqibatida bir qator salbiy jihatlar ko'zga tashlanmoqda. Yoshlar orasida spirtli ichimliklar iste'mol qilish, tama-ki mahsulotlari, giyohvand va psixotrop moddalar qabul qilish holatlari ko'paygan. Natijada millat genofondiga jiddiy ta'sir qiluvchi xavf tahdidi mavjud.

Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj yoshlarning jamiyatga integratsiyalashuvi, ma'lum bir ijtimoiy statusga ega bo'lishi borasida ham bir qator yechimini kutayotgan muammolar mavjud. Nogironligi bo'lgan yoshlarni ta'llimga jalb etish, inklyuziv ta'llimni joriy etish, bandlikni ta'minlash, ijtimoiy obyektlar infratuzilmasi, shaharsozlik me'yorlari, ijtimoiy va moddiy to'siqlarning mavjudligi ushbu sohada qilinishi kerak bo'lgan ishlarning ko'lamidan darak berib turibdi.

Yana bir jiddiy muammolardan biri hududlardagi infratuzilmaning yetarlicha rivojlanmaganligi bilan izohlanadi. Yoshlarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularning madaniy va ijodiy saviyasini oshirishga xizmat qiladigan teatr, sport inshootlari, kutubxona, muzey, istirohat bog'lari va boshqa ko'ngilochar hamda madaniy markazlar yetarli emas. Aksariyat hududlarda mavjudlaridan ham unumli foydalanilmaydi.

Uzoq, tog'li hamda cho'l hududlariga yaqin aholi yashash manzillarida yoshlarning internetdan foydalanishi uchun yetarli sharoitlar mavjud emas. Shu bilan birga internet xizmat ta'riflari qimmat hamda sifatsiz. Bu yoshlarning zamonaviy texnologiyalar asrida axborot vositalaridan yetarlicha foydalanishlariga to'siq bo'lmoqda.

O'zbekistonda yoshlar siyosatiga doir muammolar xalqaro tashkilotlar tomonidan ham tahlil qilingan bo'lib, YUNISEF bolalar tashkiloti Xalqaro yoshlar rivojlanishi indeksi hamda Yoshlar farovonligi indeksi taklif etgan yondashuvlarga ko'ra O'zbekistonidagi zamonaviy yoshlar uchun quyidagi yo'naliishlarni eng dolzarb deb hisoblaydi:

- Ta'llim va o'qish;
- Iqtisodiy imkoniyatlar va professional hayot;
- Ijtimoiy o'rashish;
- Rezidentlik va mobillik;
- Ijtimoiy ta'sir;
- Raqamli hayot va internet;
- Xavotirlar, bo'sh vaqt va yoshlikning oxiri [6, 21].

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda vaziyatning o'ziga xos xususiyatlarining ustuvor yo'naliishlarini ishlab chiqish, asosiy maqsad va vazifalarni hamda yoshlar siyosatini amalga oshirishning tegishli shakllarini belgilash zarurligini inobatga olishni taqozo etadi.

Bizning o'ylashimizcha, buning uchun:

- yoshlarning ehtiyojlari va qiziqishlarini aniqlash;
- ehtiyoj va manfaatlarni amalga oshirish uchun qulay sharoitlar yaratish;
- yoshlar, jamiyat va jamiyatning boshqa ijtimoiy qatlamlari o'rtasidagi munosabatlarini tartibga solish;
- yoshlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga solish;
- yoshlar bandligini ta'minlashga ko'maklashish;
- yosh oilalarni qo'llab-quvvatlash;
- yoshlarning siyosiy qarashlari va jamiyat siyosiy hayotida siyosiy ishtirok etish konikmalarini shakllantirish;
- yoshlar tarbiyasiga doir milliy-ma'naviy konsepsiyanı ishlab chiqish kabi dolzarb maqsad va vazifalar belgilanishi zarur.

Yoshlarga oid davlat siyosatiga doir mavjud bir qator muammolarni samarali yechishning asosiy jihatlaridan biri davlatning iqtisodiy imkoniyatlari bilan ham bog'liq.

Xulosa

Yoshlarga oid davlat siyosati o'ziga xos murakkab dinamik tizim bo'lib, unda tizimning har bir bo'g'ini faoliyati asosiy maqsadga – shaxsning erkin rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratishga, jamiyat yosh a'zolarining individual moyilligi va qobiliyatlarini ochib berishga, shuningdek, yosh avlodni ijtimoiy ahamiyatga ega rollarni bajarishga qaratilishi kerak. Yoshlarga oid siyosatning asosiy yo'nalishlari, maqsad va vazifalarini shakllantirish va amalga oshirishda jamiyat taraqqiyoti hozirgi bosqichining barcha xususiyatlarini hisobga olish zarur.

Shu bilan birga, yoshlar siyosatiga doir muammolarni hal etish uchun yoshlarga oid davlat siyosatining mavjud modelini amalga oshirishda kompleks yondashish va uni takomillashtirishga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Buning uchun quyidagi ishlarni tizimli ravishda amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- * mavjud yoshlar siyosatiga doir normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish;
- * amalga oshirilgan yoshlar loyihalarini o'rganish;
- * yoshlarning real ehtiyojlarini haqqoniy aniqlash;
- * mavjud loyihalarni yoshlarning haqiqiy ehtiyojlariga muvofiqligini aniqlash;
- * markaziy va mahalliy davlat hokimiyati, shuningdek, o'zini o'zi boshqarish organlari va fuqarolik jamiyatni boshqa institutlari o'rtasidagi hamkorlikni o'rganish.

Yoshlarga oid davlat siyosatiga doir muammolarni bartaraf etishning muhim sharti ushbu faoliyatga yoshlar qatlamini keng jalb qilish hamda ularning siyosiy faolligini oshirishda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, yoshlar siyosati sohasining ijtimoiy tarkibiy qismi bolgan barcha yosh toifalari va qatlamlarining fikrini inobatga olish muhim.

Davlatning bolalar va yoshlar tashkilotlari bilan o'zaro hamkorligi, yoshlar parlamentarizmini rivojlantirish, volontyorlik faoliyatini rag'batlantirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhidagi tarbiyalash, yoshlar o'rtaida fuqarolik mas'uliyatini oshirish, faol hayot kechirish uchun zarur chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish alohida ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Vazirlar Mahkamasining 21-sonli qarori. 2021-yil 18-yanvar. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://www.lex.uz>
2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida yoshlar bandligini ta'minlash va bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish chora-tadbirlari muhokamasi yuzasidan videoselektor yig'ilishidagi nutqi. URL:<https://president.uz/uz/lists/view/4105>
4. Гречиева Е.Ф. Общественная политика и управление в республике Беларусь. – Минск: БГУ, 2008.
5. Государственная молодежная политика: история и современность: Сборник материалов II Международной научно-практической конференции (21 мая 2015 г.) / Под ред. П.А Меркулова. Орел: ОФ РАНХиГС, 2015.
6. Youth of Uzbekistan: Challenges and prospects. UNICEF 2020. URL: <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3541/file>Youth%20of%20Uzbekistan-%20Challenges%20and%20Prospects.pdf>